



KOMPETENTLIKKA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK ASPEKTNING ILMIY ASOSLARI

F.R.Xusanova

Navoiy davlat pedagogika
universiteti magistranti

Резюме: Pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashda pedagog kadrlarning individual kasbiy layoqat (kompetensiyalar)ga egaligi ham muhim ahamiyatga kasb etadi. Individual kasbiy layoqat (kompetensiyalar) o'z mohiyatiga ko'ra pedagoglarning har biriga xos ma'naviy-axloqiy va irodaviy fazilatlari, kasbiy faoliyatga bo'lgan shaxsiy yondashuvi, mutaxassislik asoslarining puxta bilishi, ish tajribasi, o'z-o'zini rivojlantirish yo'lidagi amaliy harakatlari va ularning izchilligi negizida belgilanadi. Bunda pedagog kadrlarning mutaxassis sifatida rivojlanib borishga undovchi motivatsiyalarga egaligi muhimdir. Maqolada pedagog kadrlarning individual kasbiy layoqat (kompetensiyalar)ga egaligini ta'minlovchi motivatsiyalarning monitoring jarayonidagi in'ikosi to'g'risida so'z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: aspekt, kasbiy layoqat (kompetensiya), individual kasbiy layoqat, monitoring, monitoring natijalari.

Резюме: В обеспечении эффективности педагогической деятельности большое значение имеет обладание педагогическими кадрами индивидуальных профессиональных компетенций. Индивидуальные профессиональные компетенции по своей сущности определяются в рамках духовно-нравственных и волевых особенностей, личностного отношения к профессиональной деятельности, знания основ специальности, трудового опыта, практических усилий педагогов, направленных на саморазвитие и их последовательности. В этом очень важно наличие в педагогических кадрах в качестве специалистов мотиваций, побуждающих к развитию. В статье речь идёт о проявлении в процессе мониторинга мотиваций, обеспечивающих обладание педагогическими кадрами индивидуальных профессиональных компетенций.

Ключевые понятия: аспект, профессиональная компетенция, индивидуальная профессиональная компетенция, мониторинг, результаты мониторинга.

Abstract: In ensuring the effectiveness of pedagogical activity the possession of individual professional competencies by pedagogical personnel is of great importance. By its essence, individual professional competency is determined within the presence of spiritual, moral and volitional features in educators, personal attitudes towards professional activities, knowledge of the foundations of the specialty, work experience, practical efforts of teachers aimed at self-development and their regularity. It is very important that pedagogical personnel as future specialists have motivation that encourages them to develop. The article is about manifestation of motivations in the process of monitoring that ensure pedagogical personnel to possess individual professional competencies.

Key notions: aspect, professional competencies, individual professional competencies, monitoring, results of monitoring.

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta'limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog'liq.



Ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Ta'lim jarayonining faol subyektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari shundan iboratki, ma'lum mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'quvchi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib shunday yozadi: "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizni ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq," shunday ekan ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Bo'lajak har bir kasb egasini bilim bilan qurollantirish emas, balki tarbiyalash, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish va o'tkir bir talab qo'yish hozirgi kunning muhim vazifasi sanalmoqda. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

Kompetentlik deganda, alohida bilimlar va ko'nikmalar yoki faoliyatning alohida harakatlarining yig'indisi to'g'risida emas, balki, insonga mehnat faoliyatini to'la-to'kis amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan xususiyat haqida so'z yuritiladi.

KOMPETENTLIK¹ – ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtiradi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o'zi qaror qabul qilish

¹ MA'NAVIYAT asosiy tushunchalari lug'ati. 2009-yil.



imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy kompetentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy -psixologik kompetentlikka oid turlari keng qo'llanadi. Boshqaruvga oid kompetentlik ana shu sohaga taalluqli bilim va ko'nikmalarning, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim insonning o'z shaxsiy manfaatlari uchun ham, jamiyat, davlat manfaatlari uchun olib boradigan faoliyatining asosiy sohalarida muvaffaqiyatini ta'minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o'zlashtirishiga qaratilgan.

ASPEKT so'zi (lot. aspectus - qarash, nuqtai nazar, tahlil qilish) kabi keng ma'nolarni anglatadi.

Pedagogik aspekt - har bir obektdagi ta'lim jarayonning mohiyatini belgilovchi va samaradorligini ta'minlovchi tomonlari va yo'nalishlarini o'rgatish hamda loyihalash va tahlil qilish.

Kasbiy kompetentlik tor ma'noda malaka talablari doirasida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatleri yig'indisining xarakteristikasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan kasbiy kompetentlik shaxs kasbiy sifatlarining negizi hisoblanadigan hamda mehnat va texnologik jarayonlarni tahlil qilish, texnik hujjatlarni va topshiriqlarni tahlil qilish, mehnat jarayonini bexato amalga oshirish, texnologik talablarga rioya qilish, qo'shimcha malakalarni egallash, madaniyat va jarayonlarni tashkil etishning yuqori darajaliligi, texnologik jarayonda vujudga keladigan nosozliklarni bartaraf etish kabi faoliyatning elementlari orqali taqdim etilgan kasbiy kompetentsiyalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

A.K. Markova muayyan insonning kompetentligi uning kasbiy mahoratiga nisbatan torroq bo'ladi, deb hisoblaydi, ya'ni: "Inson umuman olganda o'z kasbining ustasi bo'lishi mumkin, lekin barcha kasbiy masalalarni hal etishda kompetentli bo'lmasligi mumkin".

S.YE. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan:

- o'qish-o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik;

- bilim va vaziyatlar o'rtasidagi aloqani o'rnatish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo'lini topish (kompetentlik deb aytish uchun biror-bir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo'ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo'lib qolsa ham katta gap).



A.A. Cheremisina kompetentlikni shaxsning yaxlit sifati deb qaraydi va kognitiv (bilim), motivatsion (moyillik) va faoliyat (tajriba)dan iborat, deb hisoblaydi. N.G. Vitkovskaya talabalarning axborotga oid kompetentliklarini o'rganar ekan, unda to'rtta asosiy komponentni ajratib ko'rsatadi: ma'naviy-motivatsion, kognitiv, texnologik va reflektiv.

I.V. Grishinaning fikricha, kompetentlik shaxsning murakkab va ko'pqirrali ta'limi bo'lib, funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlardan iborat:

motivatsion (maqsad va vazifalarga mos keladigan motivlar majmui);

kognitiv (zarur bo'lgan bilimlar majmui);

operatsion (vazifalarni amaliy hal etish ko'nikmalari va malakalari majmui);

shaxsiy (muhim shaxsiy sifatlar majmui);

reflektiv (o'z faoliyatidan ko'ngli to'lish, uni baholash, "susaytirish", yo'l tutish usullarini tanlash).

L.G. Antropova kompetentlikning komponentlaridan biri bo'lgan kommunikativlik quyidagilarni aks ettiradi, deb hisoblaydi:

o'qituvchining pedagogik muloqatning maqsadlari, mohiyati, tuzilmasi, vositalari, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha axborotga egaligini (kommunikativ bilimlar);

mazkur faoliyat texnologiyalarining o'zlashtirganligini (kommunikativ ko'nikma va malakalar);

pedagogik muloqotning samarador bo'lishi muhimligini o'qituvchi tomonidan tasarruf etilishini, o'z pedagogik faoliyatining kommunikativ jihatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga intilish kabi xislatlarni ta'minlaydigan mutaxassisning individual-psixologik sifatlarini (kommunikativlikka yo'naltirilganlik);

inson shaxsiga eng asosiy qadriyat deb qarashni (insonparvarlik), pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan kommunikativ vazifalarni noan'anviy yo'llar bilan, ijodkorona hal eta olishni (kreativlik).

Shunday qilib, kompetentlikning mazmuni va qaysi fan sohasiga tegishliligidan qat'iy nazar, uning tuzilmasini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

kognitiv (fan sohasiga oid bilimlar majmui bo'lib, ular asosida kompetentlik shakllantiriladi);

faoliyatga oid (amaliy tajriba);



operatsion-texnologik (vazifalarni amaliy hal etish ko'nikmalari va malakalari majmui);

shaxsiy (mazkur fan sohasidagi faoliyat uchun muhim bo'lgan individual-psixologik sifatlar va qobiliyatlar majmui);

ma'naviy-motivatsion (faoliyatning maqsad va vazifalariga mos keladigan qadriyatlarga moyillik, motivlar majmui, dunyoqarash);

refleksiv (faoliyat va uning natijalarining mohiyatini tushunish, baholash, oldindan ko'ra bilish, kreativlik).

Tayanch kompetensiyalar – insonning jamiyatdagi hayotiy faoliyatidagi dolzarb va perspektiv ahamiyatga ega bo'lgan turli sohalariga tegishli bo'lgan masalalar, bilimlar, amaliy ma'lumotlar va faoliyat usullaridan iborat bo'lib, ularni o'zlashtirish bir tomondan insonning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlasa, boshqa tomondan, jamiyatning ma'lum bir sifatdagi inson resurslariga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qiladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta'kidlashlaricha, kompetentlik – shaxsning murakkab, yaxlit bir butun, ko'p omilli, ko'pqirrali sifatidir. Kompetentlikning vujudga kelishi uchun quyidagi sifatlar poydevor, asos bo'lib xizmat qiladi:

ma'lum fan sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar;

mustaqil faoliyatdagi amaliy tajriba.

Biroq, bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanganligi bilan, kompetentlik ularning o'zidagina iborat emas. Kompetentlik shaxsning “bilim, ko'nikma va malakalar” asosida shakllangan sifati bo'lib, ularni muayyan vaziyatda, amaliy faoliyatda qo'llay olishga qodirligidir. Kompetentlik muayyan sohaga oid faoliyatni o'zlashtirib borish jarayonida vujudga keladi, shuning uchun ham ushbu faoliyat kompetentlikning ikkinchi muhim poydevori hisoblanadi.

Tegishli sohaga oid bilim va ko'nikmalar va shu soha bo'yicha amaliy faoliyat tajribasi bo'lmasa kompetentlik bo'lishi mumkin emas.

Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish;

qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;

ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;



faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnatish olish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar;

muayyan ma'naviy qadriyatlarga, dunyoqarashga, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi;

o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, kompetentlik tafakkurning ma'lum bir turlarini – izlanuvchanlik, tanqidiy fikrlash, refleksivlikni hamda muayyan qobiliyatlarni talab etadi.

Kompetentlikning muayyan sohaga oid bo'lishi uning o'ziga xosligi va aniqligini belgilaydi. Shu nuqtai nazarga ko'ra kompetentlik har xil turlarga ajratiladi – ijtimoiy va kasbiy, maxsus va individual, axborotga oid va kommunikativ, pedagogik va psixologik, ekologik va hokazo. Shu bilan birga, tadqiqot muammosi bo'yicha ishlarning tahlili ko'rsatishicha, kompetentlikning taklif etilayotgan tavsiflari va tipologiyasi kompetentlik yondoshuvi bilan bevosita aloqadorlikda o'rganilmaydi.

Xorijiy davlatlar va vatanimiz tadqiqotchilari tomonidan taklif etilayotgan tayanch, bazaviy, universal kompetensiyalar deb hisoblash mumkin bo'lgan kompetensiyalarning turlicha tasniflarida kompetensiyalarning shunday barqaror guruhlari yetarli darajada aniq-ravshan belgilab berildiki, ularni egallamasdan turib, inson zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat bilan, ziddiyatlarsiz, qarama-qarshiliklarsiz yashashi va faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

ijtimoiy-fuqarolik sohasidagi kompetensiyalar - subyektning ijtimoiy faolligini va fuqarolik ma'suliyatini, uning demokratik institutlar faoliyatida va uni yaxshilashda hamda jamiyatning siyosiy hayotida ishtirokini va hokazolarni ta'minlaydi;

ijtimoiy munosabatlar sohasidagi kompetensiyalar - yozma va og'zaki hamda tillararo (ya'ni bir necha tillarni bilishlik) muloqotni yaxshi bilishni, shaxslararo samarali va ziddiyatlarsiz o'zaro munosabatlarni oqilona amalga oshirishni, o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag'rikenglikni, boshqa madaniyat va diniy e'tiqodlarni to'g'ri qabul qilish va hurmat bilan qaray bilishni va hokazolarni ta'minlaydi;

axborot sohasidagi kompetensiyalar - yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini tushunish, ularni egallash va o'z o'rnida qo'llay



bilish, turli axborot manbalaridan foydalana bilish, yaxlit axborot muhitida ishlashga tayyorlik, axborotga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la olishni va hokazolarni ta'minlaydi;

ijtimoiy-individual sohadagi kompetensiyalar – oilaviy -qarindoshchilik va shaxsiy munosabatlarni to'g'ri o'rnatish olish, o'zining sog'lig'i va ma'naviy-axloqiy xislatlariga ongli va ma'suliyatli ravishda munosabatda bo'lish, bo'sh vaqtini o'tkazish usullarini to'g'ri tanlay bilish va hokazolarni ta'minlaydi;

kasbiy-mehnat sohasidagi kompetensiyalar - mehnat bozoridagi vaziyatlarni tahlil qila bilish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, mehnat munosabatlaridagi qonun-qoidalar va axloqiy meyorlarni bilish, o'z kasbiy faoliyatiga tegishli chuqur bilimlarga va keng dunyoqarashga ega bo'lish, amaliy vazifalarni hal etishda o'z bilim va tajribalarini epchillik bilan mohirona qo'llay olish, kasbiy-axloqiy sifatlarga ega bo'lish va hokazolarni ta'minlaydi;

tizimli kompetensiyalar - kasbiy jihatdan ham, shaxsiy va ijtimoiy hayotida ham mustaqil ravishda o'qish-o'rganishga, jismoniy va psixik jihatlardan o'z-o'zini boshqara olish va o'z-o'zini takomillashtira olish malakalarini egallashga qodirlik va hokazolarni ta'minlaydi.

Tayanch kompetensiyalarni belgilashda jamiyat ehtiyojlari yoki ijtimoiy buyurtma muhim asos va yo'llanma bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, demokratik, fuqarolik jamiyatida ijtimoiy buyurtma davlat va jamiyat manfaatlariga ham, shaxsiy manfaatlariga ham birday mos bo'lishi kerak. Ijtimoiy buyurtma asosida belgilangan tayanch kompetensiyalar o'z navbatida ta'limning maqsadi va natijasi sifatidagi kompetentlikni tashkil etadigan tarkibiy qismlarni belgilab beradi.

Demak, bo'lajak pedagogning aspekti, kompetensiyasi kasbiy kompetentlikning asosiy turlaridan biri bo'lib, vazifalarni hal qilishda uning o'zigagina xos bo'lgan imkoniyatlarga tayanishini anglatadi. Kompetensiyaga ega bo'lish pedagogdan doimiy ravishda rivojlanib borishni taqozo qiladi. Bunda uning faoliyat hamda kasbiy jihatdan o'sishiga bo'lgan munosabati muhim ahamiyatga ega. Ushbu munosabat pedagog kadrlar ega bo'lgan aspektlari bilan belgilanadi. Pedagoglarning kasbiy faoliyat hamda kasbiy jihatdan o'sishiga bo'lgan munosabatini belgilashda ustuvor bo'lgan motivlarni aniqlashga yordam berdi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Байденко В.И. Концептуальная модель государственных образовательных стандартов в компетентностном формате. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
2. Безрукова В. С. Педагогика. Проективная педагогика. Екатеринбург: Деловая книга, 1996.
3. Беспалько В.П., Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса: Учеб.-метод, пособие. М.: Высшая школа, 1989.
4. Короткое Э.М. Управление качеством образования. Учебное пособие для вузов. М: Академический проект, 2006.
5. Левина ММ. Технологии профессионального педагогического образования. М.: Академия, 2001.

